DOSTONLARINING KUY VAZNI VA USULLARI

Qo'shaev Ilhom Axtamovish
Buxoro davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Doston nomalarining kuy vazni va usullarining harxilligi haqida va ularning ifoda vositalarini bir toifa qo'shiqlarda muayyan qoidalarga bo'ysungan barqaror holda bo'lishi boshqalarida esa erkin, o'zgaruvchan, beqaror ko'rinishlarda namoyon bo'lishi haqidagi tushunchalar berilgan. Bu esa yoshlarning ta'lim jarayonida milliy musiqalarini amaliy va nazariy idrok etish va ijro yo'llarini anglashga xizmat qilishi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Doston baxshi, do'mbra, xalfa, mumtoz, so'z, soz, aytim, ijodiyot, mumtoz, xonandalik musiqa idroki,gulligi,ochiq ovozda kuylash uslublari,usul,nag'ma.*

Doston nomalarining kuy vazni va usuli har xil bo'lib, bu ifoda vositalari bir toifa qo'shiqlarda muayyan qoidalarga bo'ysungan barqaror holda gavdalanadigan bo'lsa, boshqalarida erkin, o'zgaruvchan, beqaror ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Kuy vaznlari oddiy, murakkab va aralash o'lchovlvrda keladi. Doston kuy nomalarining aksariyat ko'pchiligi 6/8 o'lchoviga, ozroq qismi 2/4 va 4/4, bundan ham kamroqg'i 3/8, 3/4 va 9/8 shuningdek, qolgan oz qismi 5/8, 5/4, 7/8 kabi har xil aralash murakkab o'lchovlarga to'g'ri kelishi ma'lum.

Kuy nomalari ijrosida usul vositasi o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand, Qoraqalpoq, va Xorazmning Eroniy uslubi yo'nalishi baxshilari ijrosida doira ishtirok etmaydi. Ular do'mbira yoki dutor, jirovlar esa qo'bizda o'zlariga jo'r bo'lib aytadilar. Xorazm Eroniy uslub yo'nalishi va Qoraqalpoq baxshilariga bo'lamonchi yoki g'ijjakchi jo'r bo'lishi mumkin. Bunda nomalarning ichki usul birliklari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan dutor va do'mbira zarblari, ba'zan o'ng qo'l barmoqlarini cholg'u qopqog'iga tegizib tovush hosl qilish go'yo doira o'rnini bosadigandek tuyuladi. Xorazm Shirvoniy ijro uslubi yo'nalishi baxshilari faoliyatida dutor, o'tgan asrning boshlarida qo'shilib qelgan tor, bo'lamon yoki qo'shnay, g'ijjak cholg'ulari qatorida doira ham ishtirok etadi. . Ustozlarning aytishlaricha, mazkur yo'nalish kuylarining Maqomlarda bo'lganidek, maxsus nomlarga ega bo'lgan Qadimiy va ilg'ori (4/4, 2/4) usullar, Sak (sakrash) (6/8) usul, Lang (oqsoq) (7/8) usul, Muxammas (6/8) usul, Ufor (6/8,3/4) usullar, Gul ufor (6/8) usul, maxsus nomi bo'lmagan (soqinoma usuliga to'g'ri keladigan 2/4) usul va kuchli hissalariga urg'u berilgan doiraning"Bak, bum, bum" yoki vals usuliga o'xshash "Bum, bak, bak" shaklidagi (6/8) kabi usullari mavjud.

Ayrim noma kuylarining boshida doira jo'rligi bo'lib, kuy nisbatan balandroq pardalarga chiqqanidan so'ng, she'r matni asosan baland tovushda xonish (deklamatsiya)

uslubida aytilishi mumkin. Kuyning bunday qismlarida doira rez qilib turib yoki butunlay to‘xtab, kuyning naqarot qismiga kelganda yana qo‘shilib ketadi. Ayrim dostonchilik maktablari ijro uslublarida nomalarni erkin tarzda, usulsiz katta ashula yoki yovvoyi maqom tamoyilida aytishni ham kuzatish mumkin.

Xorazm doston nomalarining parda tuzilishi masalasi Yu.Kon va I.Akbarovlar “O’zbek xalq muzikasi” to‘plamining 1X jildiga yozgan so‘z boshida tahlil qilingan. Ularning kuzatishlaricha Xorazm doston nomalarining lad asoslari, ya’ni tovushqator va kuy harakatlarida 7 pog‘anali diatonik ladga asoslangan ioniy (tabiiy major), eoliy (tabiiy minor) va ko‘p uchraydigan miksolidiy ladlari bilan birga o‘zbek musiqasida kam uchraydigan, tarkibida orttirilgan sekunda intervali bo‘lgan tovushqator, tayanch nuqtasi tovushqator o‘rtasida joylashgan gipofrigiy (yoki lokriy) kabi ladlarning mavjudligi, ularning o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan lad asoslari qonuniyati belgilaridir.

Nomalar lad asoslarini o‘rganishda avvalo baxshilarning asrlar davomida asosiy cholg‘usi bo‘lib kelgan dutor parda tuzilishi, sar parda yoki bosh (besh) parda, Shirvon parda, Miskin parda, lol parda va zorinji parda, ularning kuy tuzilishidagi o‘rni kabi tushunchalarga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu pardalarning (tovushsiz lol pardasidan tashqari) har biridan nomalar boshlanib, ular mustaqil tugal kuylar bo‘lishiga qaramay, noma she’riy matnlariga bo‘ysunadi. Ayrim nomalarning Ovro‘pa musiqasidagi modulyatsiya va og‘ishmaga o‘xshab, bir tovushqator (tonallik) pardasidan boshlanib, boshqasida tugashi yoki ma’lum bir pardadan boshlanib, kuy o‘rtasida boshka tonallikka og‘ishi va kuy oxirida yana dastlabki asosiy tonallikka qaytib yakunlanishi ham kuzatiladi.

Doston kuy nomalaridagi bunday lad o‘zgarishlari, maqomlarga o‘xshab doriy-miksolidiy, eoliy-doriy, miksolidiy–ioniy kabi qo‘sha ladlarning paydo bo‘lishi va yondosh tonalliklarga ko‘chishlarning asosiy sababi tinglovchilar diqqatini doimiy nazoratda saqlash uchun doston ijrosi quvvatini oshirish, kuy avjlarining juda balandlashib ketib, ijrochini toliqtirib qo‘ymasligi va tinglovchilarni zeriktirib qo‘yadigan bir xillik (yakka tonallik)ni oldini olish bo‘lishi mumkin.

Doston nomalarining hajmi va tovush diapazoni turlicha bo‘lib, ular besh pardadan boshlab, bir yarim oktava ba’zan undan xam ko‘prok diapazoga ega bo‘lishi mumkin. Ular ichki tuzilishi va shakli jihatidan xalq qo‘shiqlariga o‘xshash bo‘lib, bu qo‘shiqlarning yuzaga kelishida kuy tuzilishining kuplet shakli asosiy o‘rin egallaydi. Nomalarda she’r turoqlariga kuy bo‘lagi, she’r bandiga kuy bandi, she’r to‘rtligiga kuy davri mutanosib mos kelishi shuningdek, cholg‘u muqaddima, qo‘shiq “naqorati”ning cholg‘uda takrorlanishi, yakuniy tushirim yoki “sayqal” deb yuritiladigan, ko‘pincha qo‘shiq tonligini o‘zgartiruvchi cholg‘u intihosi aytim yo‘li va unga cholg‘u jo‘rligini chambarchas bog‘laydi.

O’zbek xalq dostonchiligi an’analarida nomalarni kuylab aytish uslubi asosan ikki xil yo‘nalishda shakllangan. Birinchisi Qashqadaryo, Suxondaryo va Samarqand baxshi-shoirlarining “ichki ovoz-gulligi” uslubida do‘mbira jo‘rligida aytish shuningdek, jirovlarning qadimgi bo‘g‘iq-yopiq ovozga asoslangan xuddi shunday ichki ovozda qo‘biz jo‘rligidagi

ijrolari boʻlsa, ikkinchisi Xorazm baxshilarining erkin ochiq ovoz bilan dutor joʻrligida, Shirvoniy uslubi baxshilari esa, keyingi paytlarda tor, gʻijjak, boʻlamon va doira cholgʻulari ansambli joʻrligida qoʻshiq nomalari ijrosidir.

O'tmishda doston ijrochiligi an'analari tarkibida ijroning ma'lum oʻziga xos jilolari bilan bir-biridan farq qiladigan dostonchilik maktablari vujudga kelgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda Bulungʻur, Qoʻrgʻon, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Xorazm va boshka dostonchilik maktablari mavjud. Samarqand dostonchilik an'analari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan boʻlib, ular Bulungʻur, Nurota (Qoʻrgʻon) va Narpay dostonchilik maktablarini oʻz ichiga oladi. Bulungʻur dostonchilik maktabida koʻpincha "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf bilan Ahmad", "Rustamxon", "Goʻroʻgʻlining tugʻilishi", "Jahongir" "Oysuluv", "Hasanxon", "Chambil qamali" kabi qahramonlik dostonlari zoʻr mahorat bilan kuylangan. Muhammad shoir, Sultonmurod Suyar, Rahim – bulbul, Amin baxshi, Chinni shoir, Tovbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Yoʻldosh–bulbub, Yoʻldosh shoir, Qoʻldosh Suyar, kabi baxshilar bu maktabning oʻtmishdagi yirik namoyandalaridir. Fozil Yoʻldosh oʻgʻli (1872-1955) bu maktabning soʻnggi yirik vakillaridan edi.

Samarqandda yana bir mashhur maktab Qoʻrgʻon dostonchiligi deb ataladi. Bu maktabda ham "Goʻroʻgʻli" kabi qahramonlik dostonlari aytilgan boʻlsada, biroq, unda "Gulnor pari", "Qunduz bilan Yulduz", "Oysuluv", "Ravshan", "Dalli" "Kuntugʻmish" kabi ishqiy – romantik dostonlar nisbatan koʻproq ijro etilgan. Yodgor, Lafas, Mulla Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul, Boʻron baxshi, Jassoq baxshi, kabi oʻtmishda Qoʻrgʻon dostonchilik maktabining yirik vakillari boʻlgan ustoz baxshilar qatorida Sulton kampir va Tilla kampir ismli iste'dodli mohir ayol baxshilar ham faoliyat koʻrsatganlar.

Ergash Jumanbulbul oʻgʻli (1868–1937) va Poʻlkan shoirlar (1874 – 1941) bu maktabning soʻnggi yirik namoyandalari edi.

Narpay dostonchilik maktabining taniqli vakillari Rajab shoir va uning tarbiyasida boʻlgan Islom shoir, Nurmon Abduvoy oʻgʻli va boshqa ustoz baxshilar ham oʻzbek eposi rivojiga ma'lum hissa qoʻshganlar. Bu maktabning yirik namoyandalari koʻproq "Orzigul", "Sohibqiron", "Gulixirmon" kabi dostonlarni zoʻr mahorat bilan ijro etganlar.

Shahrisabz dostonchilik maktabi X1X asrda vujudga kelgan. Uning soʻnggi yirik namoyandasi Abdulla Nurali oʻgʻli edi. Bu maktab baxshilari doston kuy – nomalarini shoʻx, quvnoq, nisbatan tezroq sur'atda va koʻtarinki ruhda kuylaganlar.

Sherobod dostonchilik maktabiga mansub Umir Safar oʻgʻli, Shernazar Beknazar oʻgʻli, Ahmad baxshi, Nurmurod baxshi, Joʻra Eshmirza oʻgʻli, Nurali Boymat oʻgʻli va ushbu maktabning eng iqtidorli vakili Mardonaqul Avliyoqul oʻgʻli, kabi san'atkorlar ijodida ham Goʻroʻgʻli turkumi dostonlari alohida oʻrin tutadi. Bu baxshilar repertuaridagi dostonlar oʻzining soddaligi, matnining ixchamligi bilan farqlanadi. Bu maktab vakillari ayniqsa, "Nurali", "Malla savdogar", "Ollonazar Olchinbek","Oltin qaboq", "Sanam Gavhar" dostonlarini badiiy yuksak darajada ijro etganlar.

Janubiy Tojikistonning Dang‘ara tumani, Joro‘b qishlog‘ida yashab o‘tgan Haybat Shamol o‘g‘li, To‘la Haybat o‘g‘li, Mustafoqul Qunduz o‘g‘li kabi taniqli o‘zbek baxshilari ham asosan “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi va boshqa dostonlarni o‘ziga xos usulda ijro etib, o‘zbek dostonchiligi rivojigaga ma’lum hissa qo‘shganlar. Ular repertuaridagi dostonlar matni nihoyatda ixchamligi bilan ajralib turadi.

Qoraqalpoq dostonchiligi odatdagi qadimiy jirovchilik va keyinchalik shakllangan baxshichilik yo‘nalishlarida rivojlanib kelmoqda. Jirovlar qahramonlik va bahodirlik dostonlarini o‘z ota-bobolari an’analriga rioya qilib, qo‘biz jo‘rligida ichki yopiq ovozda kuylab kelmoqdalar. Baxshilar esa xorazm dostonchilik an’analariga yaqin bo‘lib, ochiq ovozda dutorda jo‘r bo‘lib, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar, “Oshiq G’arib va Shohsanam” kabi lirik dostonlarni ko‘proq ijro etadilar. Mashhur qoraqalpoq jirovlari Shanqay yoki Shanket jirov (1814-1884), Jiyamurat jirov (1836-1908), Nurabilla jirov (1862-1922), Yerpolat jirov (1861-1938), Qurbanbay jirov(1876-1958), To‘ra jirov (1879-1044), Otaniyoz jirov(1883-1989), Og‘iz jirov(1884-1954), Qiyos jirov (1903-1974) va boshqalar haqida filolog professor Qalli Ayimbetovning “Qalq danalig‘i” kitobida anchagina ma’lumotlar berilgan. Shular qatorida Oqmambet baxshi, Musa baxshi, Edenbay baxshi, Adilbay baxshi, O’rinbay baxshi, Japaq (Jobborbergen) baxshi Shamuratov (1893-1970) kabi mashhur baxshilarni ham eslab o‘tish o‘rinlidir.

ADABIYOTLAR:

1. Норова Ш. У. роль внешкольного музыкального образования в формировании музыкальной культуры молодежи //ijodkor o'qituvchi. – 2022. – Т. 2. – №. 21. – С. 10-15.

2. Норова Ш. У. Роль народной музыки в духовно-нравственном образовании студентов //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 855-859.

3. Akhtamovich K. I. the content of education aimed at methodological improvement of the study of traditional musical heritageAcademicia Globe:Inderscience Research–2022–T.3№.01–C.13-15.

4. Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 893-898.

5. Mirshayev U. M., Mirshayeva D. A. Formation, History and Stages of Development of Bukhara Maqom Art //european journal of innovation in nonformal education–2022.T.2–№2. – С. 429-433.

6. Миршаев Улугбек Музаффарович. "механизмы формирования музыкальных способностей кольников в семье" Наука, техника и образование,no.2-1 (77),2021, pp. 77-80.

7. Tukhtasin Rajabov Ibodovich.practical situation of teaching uzbek musical folklore in the continuous education system.international journal of early childhood special education (int-jecse) doi:10.9756/intjecse/v14I6.77 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. Str.708-716

8. Tukhtasin Ibodovich Rajabov.The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore.Volume-1 |Issue-1 Available online @https://procedia.online/index.php/philosophy//Procedia of Philosophical and Pedagogical SciencesISSN2795-546XVolume–1Issue–1August–2022 Procedia

9. Ramazanova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education–2022–T.2–№ 1. – C. 336-339.

10. Каримов О. И., Шарипова С. Ш. К. Место искусства музыки в формировании идеальной личности человека в дошкольном заведении //Science and Education.2022Т.3–№1.С.692-698.

11. Ходжаев Р. Р., Каримов О. И. Подготовка будущих учителья музыки. Тренировка на скрипке для рефлексации мышц //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. С. 1419-1423.

12. nurullayev f. содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

13. Nurullayev F. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 20. – №. 20.

14. Ramazanova O. K., Shukurov M. historical development of status //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 447-452.

15. Rajabov A. The development of music and instrumental performance in Central Asia //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

16. Axtamov I. Maktab musiqa madaniyati darslarida maqom namunalarini o'rgatishni metodik takomillashtirish tajribalaridan //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022.–Т.21. – №. 21.

17. Каюмов И. Ф. Санъатнинг турлари ва уларнинг тарбиявий аҳамияти //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 849-854.

18. Ibragim Fayzullaevich Kayumov. Xalq qo’shiqlari asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarning nutqiy malakasini o’stirish usullari. Scientific progress 2021/03Б.635-640.

19. Рузиев Д. Ю. Оркестр как средство музыкально-эстетического воспитания учащихся //Academy. – 2020. – №. 11 (62). – С. 50-53.

20. Рузиев Д. Ю. Проектирование процесса обучения музыкальным произведениям в ансамбле //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 58-61.

21. Кушаев И. А., Ахтамов И. И. У. проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах узбекистана //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 54-57.

22. raxmatova m. “shashmaqom” nasr (ashula boʻlimining ikkinchi guruh shoʻbalarini) oʻrgatish yoʻllari //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 19. – №. 19.

23. Raxmatova M. O. o ‘zbek xalqining folklor san’ati hamda folklor-etnografik jamoalarning musiqa san’ati rivojida tutgan o’rni //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 628-634.

24. Мадримов Б. Х. қадимги давр фольклорининг ёшлар тарбиясидаги аҳамияти //zamonaviy ta’lim: muammo va yechimlari. – 2022. – Т. 1. – С. 192-195.

25. Мадримов Б. Х. Ўқувчиларни Мусиқа Саводхонлигини Ошириш Имкониятлари //ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 12-16.

26. Ибодов У. Р. Способы обучения музыкальной грамоте на уроках музыкальной культуры //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 65-68.

27. Ибодов У. Р. музыкальные формы на основе индивидуальной модели композиции //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 236-241.

28. Хасанов Х. Р., Яхяева Ш. Ш. методика организации «группового пения» в преподавании «музыкальной культуры» в общеобразовательных школах //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B2. – С. 165-168.

29. Хасанов Х. Р. неопределенные формы в музыке //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 751-756.

30. Камолов Ш. Х., Бомуродов Ш. Ш. Педагогический характер студенческой молодежи и психологический подход //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 60-62.

31. Камолов Ш. Х. Приёмы и методы преподавания музыки в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 602-607.

32. Yoshiyevna U. M. the method of organizing" group singing" in teaching" musical culture" in secondary schools //Modern Journal of Social Sciences and Humanities.– 2022. – Т. 4–С.271-274.

33. Умурова М. Ё. the importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.